

XX asr Andijon adabiy muhiti haqida ayrim mulohazalar**Saloxiddinova Nigoraxon Inomjonovna****Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b.****"UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDOGOGY" NOTM. Andijon**

Annotatsiya. Maqolada XX asr Andijon adabiy muhiti va unda ijod qilgan ayrim shoirlar haqida umumiy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar. O'zbek adabiyoti tarixi, Andijon adabiy muhiti, Muhammadzokir Habibiy, Muhammadxon mahdum Mahjuriy, Avliyoxon mahdum, xayrabodlik Abdulahad Anisiy, bo'taqoraliq Abduvahob Sayfiy, andijonlik Imomiddin Ulfat, Abdulhamid Hurram, Solijon qori Vose'jonov, Abdulfattoh mahdum Huzuriy

O'zbek adabiyoti tarixi taraqqiyotida har bir davning, har bir adabiy muhitning o'z o'rni bor. Turli davrlarda yetishib chiqqan ijodkor so'z san'ati taraqqiyotini takomillashtiradi, uni rivojlantiradi. Davr va shaxs muammolarini turli rakurslarda ifoda etadi. Bir xil qarashga, bir ijodiy oqimga mansub ijodkorlar guruhi adabiy muhitni yuzaga keltiradi. O'zaro ijodiy aloqalar tufayli adabiy muhitning, qolaversa, badiiy ijodning miqyosi kengayadi. Shu o'rinda prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning Andijonga tashrifi chog'ida aytilgan "Har bir hududga borganda o'sha yerning tarixini o'rganish va tiklashga e'tibor qaratmoqdamiz. Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtayi nazaridan u hamon yashayapti. Bu maskanni yanada obod qilib, tarbiya o'chog'iga aylantirish zarur. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz"¹ – degan fikrlari ham Andijon adabiy muhitini yanada izchil o'rganish masalasini qo'yadi. Andijon adabiy muhiti yoki andijonlik ijodkorlar haqida gap ketganda Zahiriddin Muhammad Bobur, mavlono Yusuf, mavlono Safoiy, Nodirabegim, Samarbonu, Cho'lpon, Komil Yashin, Habibiy, Hayratiy, Oraziy, Vosit Sa'dulla, Hoshimjon Razzoqov,

¹ Shavkat Mirziyoyev Andijondagi «Bog'i Bobur» istirohat bog'ida bo'ldi.

<https://kun.uz/uz/news/2017/06/02/savkat-mirzieev-andizondagi-bogi-bobur-istiroat-bogida-buldi>

Ulfat, Saida Zunnunova, Tursunoy Sodiqova, Qamchibek Kenja, Olimjon Xoldor, Minhojjiddin Mirzo, Muhammad Yusuf kabi el ardoqlagan shoirlar xayolimizga keladi. Ko'rindiki, Andijon xalqi ham qadimdan shoirlar, yozuvchilar, adabiyotshunos, tilshunos olimlar, madaniy merosga va nodir qo'lyozmalarga boy yurt hisoblanadi. Lekin tarix zarvaraqlariga razm solinganda ba'zi manbalarda qalamga olingan, lekin ijodi hali monografik planda o'rganilmagan shoirlar nomi ham uchraydi. Nafaqat o'rta asrlar, balki, XX asrda yashab ijod etgan qalamkashlar nomi ham unut bo'lгanday. Jumladan, XIX asr oxiri va XX asrda yashab ijod etgan Andijon adabiy muhiti shoirlari va yozuvchilari haqida amalga oshirilgan ilmiy va badiiy-publitsistik ishlar kam sonni tashkil qiladi. Shunday bo'sada bu davr haqida qimmatli ma'lumotlarni beruvchi asarlarning yaratilishi Po'lotjon Domulla Qayyumov, Nabijon Qobulov, Ahmadrafiq Qambarov, Maqsudxon hoji Is'hoq Mahjuriy o'g'li, Usmonjon Shukurovning nomlari bilan bog'liqligi kuzatiladi.

Chunonchi, "20-yillar boshlarida Andijonda qo'qonqishloqlik Muhammadzokir Habibiy, Muhammadxon mahdum Mahjuriy, Avliyoxon mahdum, xayrabodlik Abdulahad Anisiy, bo'taqoralik Abduvahob Sayfiy, andijonlik Imomiddin Ulfat, Abdulhamid Hurram, Solijon qori Vose'jonov, Abdulfattoh mahdum Huzuriy singari qalamkashlar va adabiyot muhlislari davrasi asosida o'ziga xos adabiy gurung vujudga kelgan"², – deb yozadi Ahmadrafiq Qambarov "Navodir ul-vaqoe" risolasida. Andijondagi adabiy gurungga bevosita Habibiy boshchilik qilar, nafaqat she'riyat, balki askiya, hazil-mutoyiba ham bu gurungdan joy olgandi. A. Qambarovning "Navodir ul-vaqoye" yoxud zamonamiz fozillari hayotidan lavhalar kitobining yaratilishi ham yozuvchining yoshlikdan otasining maslahatiga ko'ra Habibiy, Mahjuriy, Anisiy, Sayfiy, Ulfat, Hurram kabi zamona ilg'or kishilarining davra suhbatlarida ishtirok etadi. U yerda badiiy adabiyotning, she'riyatning, san'atning nozik ma'no qirralarini o'rgandi. Shuning uchun ushbu asarning debocha qismida "Ozmi-ko'pmi, harqalay, qirq yilga yaqin vaqt davomida Andijonning bir guruh komil va fozil odamlari bilan do'st bo'lish, birga ulfatchilik qilish baxtiga tuyassar bo'ldim. Ular Zokirjon Habibiy, Muhammadxon Mahjuriy, Abduvahob Sayfiy, Abdulahad Anisiy, Abdulhamid Hurram, Imodiddin Ulfat, Solijon Vose'jonov, Qosimjon Oxunov, Axmadbek Xomidov, So'fibek Najmuddinov, Majidxon Tursunov, Amonulloxon Valixonov – Boqir, G'anijon Abdullayev, Fattohxon Mamadaliyev singari har biri o'ziga xos olam bo'lgan betakror siymolardir"³ – deb yozadi. Tarixchi A.Rafiqov yuqorida nomlari

² Qambarov A. Navodir ul-vaqoye. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 173.

³ Qambarov. A. Navodir ul-vaqoye. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 3.

keltirilgan kishilarning har biri yashash sharoiti, kasbi-kori, fe'l-xususiyati bilan bir-biridan farqlansada, ularni birlashtirib turuvchi yuksak insoniy fazilatlarini, hayotni sevish, undan zavqlanish, insonlarga yaxshilik ulashish kabi oljanob hislatlarini ham e'tirof etib o'tadi.

Andijon adabiy muhiti haqida yana bir qimmatli ma'lumotlar beruvchi manba bu Usmonjon Shukurovning "G'afur G'ulom Andijonda (Xotiralar, she'rlar, maktublar, marsiyalar) to'plamidir. Ushbu to'plam G'afur G'ulom adabiy faoliyatining Andijon adabiy muhiti bilan bog'liqligini ko'rsatish barobarida, XX asr Andijon zaminida faoliyat ko'rsatgan Qori Zokir va Habibiylar atrofida Sayfiy (Abduvahob Otajonov), Mahjuriy (Muhammadxon mahsum Is'hoqov), Anisiy (Abdulahad Azizov), Ulfat (Imodiddin Qosimov), Hurram (Abdulhamid Abdurazzoqov), Boqir (Amonulloxon Valixonov) kabi zamonasining ilg'or kishilari⁴ haqida asosli ma'lumotlar beriladi.

⁴ Shukurov U. G'afur G'ulom Andijonda (Xotiralar, she'rlar, maktublar, marsiyalar). – Andijon: "Hayot" nashriyoti, 2003. – B.3.